

**MAVZU: FOSFORLI O'G'ITLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI***Choriyeva.S.Q-DTPI talabasi**Jumayev.J.A- DTPI magistri**B.X.Iraliyev-DTPI dotsenti*

Yer yuzida aholi sonining ortib borishi qishloq xo'jaligi maxsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Demak aholining ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo'jaligida yuqori hosil, shuningdek sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zarur hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ayniqsa azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Har bir mineral o'g'itlar o'simliklarga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan azotli o'g'itlar o'simliklarning vegetativ organlariga va fotosintez jarayonini tezlashtiradi. Ya'ni o'stiruvchi fosforli o'g'itlar o'simliklarda moddalar almashinuvini boshqarib turuvchi, kaliyli o'g'itlar esa turli hil kasalliklardan ximoya qiluvchi hisoblanadi. Shu sababdan har yili tuproqqa azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarni solib turish tavsiya etiladi.

Fosforli o'g'itlar o'simliklardagi moddalar almashinuvini tartibga solib turish bilan birgalikda yerlarni yumshatadi. Shuning uchun xalqimiz yerning "hamirturishi" deb ham aytishadi. Hozirgi kunda tarkibida bir necha turli makro elementlarga boy bo'lgan o'g'itlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'g'it ishlab chiqarish sanoatigaham yangi tarkib va nomdagi o'g'itlar hamda yaratildi hamda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Masalan AFU, ammoniy sulfatlar shular jumlasidandir.

Qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlik va sifatli maxsulotlarni yetishtirish uchun mineral o'g'itlar berish meyorlariga hamda ehtiyotkorlik qoidalariga rioya etish muhimdir.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda fosforli o'g'itlar tarkibidagi P205 o'simliklar tuproqdan shu holatga o'zgartiradi. Tuproq tarkibida P2O5 yetarli miqdorda bo'lishini ta'minlash zarur, aks holatda ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz. Inson uchun yod moddasi qanchalik zarur bo'lsa, o'simliklar uchun P2O5 shunchalik zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.X.Zokirov – "Agrokimyo" Toshkent 1998-yil
2. Uz.zizo ma'lumotlar